



**“ALISA MO‘JIZALAR MAMLAKATIDA”ASARINING O‘ZIGA
XOSLIGI**

Toshkent Davlat O‘zbek Tili va Adabiyoti Universiteti talabasi

Bayjonova Gulxayo

Annotasiya: *Lyuiss Keroll o‘z davrining adolatsizligini, jamiyatdagi zodagonlarini va oddiy qora xalqni o‘zining mantiqiy-badiiy, falsafiy usulda yozilgan bolalar uchun ertaklarida yoritib bergan. Kerollning asarlari bir qarashda bolalar uchun yozilgan oddiy bir to‘qima, uydirma ertakka o‘xshab ko‘rinsa -da, aslida kattalarni o‘yga tolishga undovchi mantiqiy-falsafiy asar hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Christ Church, fantastik sarguzasht, mantiq, geometriya, Viktorian davri, temir intizom, jahongashta asar, animatsion film, ramziy obraz, falsafiy asar.*

Tarjimashunoslik sohasining asl mohiyati – ma’lum bir til qoidalari asosida yozilgan matn yoki asarni ikkinchi bir til qoidalariga asosan qaytadan shakllantirishdan iborat. Tarjimon bunday mukammallika ega bo‘lishi uchun, asl matnni butunlay anglay olishi hamda tarjima qilinayotgan tilda to‘laligicha ifodalab berishi kerak. Qachonki, tarjima qilingan asarni qo‘liga olgan mushtariy asl matn yoki asardagi hissiyotlarni his qilsa, voqealar rivojini to‘la-to‘kis tasavvur qila olsa, asliyatdagi zavqni, tarjimada ham sezsa, ana o‘shanda eng yaxshi natijaga erishilgan bo‘ladi. Shu o‘rinda yozuvchi Belenskiyning gaplarini eslab o‘tsak. Belenskiy badiiy tarjima haqida o‘z qarashlarini talqin qilar ekan: “Badiiy asarni tarjima qilishning bitta qoidasi bor. Tarjima qilinayotgan asarning ruhini berishdir. Buning uchun agar, basharti, muallif rus bo‘lganda u ham asarni rus tilidan xuddi shunday yozgan bo‘lar edi: deydigan qilib tarjima qilish kerak”, - deya ta’kidlaydi.

Til bu- millat ko‘zgusi sanaladi. Bu ko‘zguda har bir milatning o‘ziga xosligi, qadriyati, urf-odat va an‘analari, ijtimoiy hayoti yoqqol aks etadi. Til – ma’naviy boylik tashuvchi vosita bo‘lib ham xizmat qiladi. Uning yordamida avloddan avlodga,



ya'ni ota-bobolarimizdan o'sib borayotgan yosh avlodga millatning ma'naviy hamda madaniy boyliklari bekamiko'st yetib keladi. Biz yosh avlod esa, o'z ona tilimiz qatorida ota-bobolarimizning ma'naviy boyliklarini ham o'rganamiz. Har bir millatning, xalqning ma'naviy hamda madaniy quroli-til sanaladi. Inson ruhiyatini tarbiyalash, tafakkur olamini kengaytirishda tilning o'rni alohida ahamiyatga ega. Til yordamida millatning qadriyatlari, ma'naviy boyliklari, o'sha millatga tegishli bo'lgan ibora, maqol, matal, xalq og'zaki ijodi o'z holicha saqlanib qolmadi. U o'z foydalanuvchisining qay millatdan ekanligini ko'rsatib beradi. Til millatlararo madaniy, ijtimoiy - siyosiy, ma'naviy muloqotni taminlashi bilan birgalikda, o'sha aloqani uzil -kesil yo'qqa chiqarishni mumkin.

Til har bir millat ma'naviyatining ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi. Lekin til faqatgina ma'naviy dunyoda emas, balki tabiatda ham kuzatiladi. Dunyodagi jamiki tillarning grammatikasida ham, leksikasida ham unli va undosh harflar, tovushlar bor. Bu tovushlarning, harflarning ketma - ket kelishi so'zlar zanjiri hosil qiladi. Mana shu hodisa millatning madaniyati emas, balki tabiat qonunidir. Chunki, inson ketma - ket keladigan unli hamda undosh tovushlardan bir boshli ma'noli nutq hosil qila olmaydi. Nutq paydo bo'lishi uchun tilning "ichki" tuzilishini ham bilish kerak. Demak, til faqatgina bir millatning nutqini emas, balki o'sha millatning qadriyatlarini, ijtimoiy - siyosiy hayotini, yashash tarzini, kelib chiqishni, urf-odatlarini va an'alarini boshqacha aytganda o'sha "millatning ruhiyatini" ifodalaydi.

Nemis tilshunos olimi V.Fon.Gumboldtning "tilda xalq ruhi aks etadi" fikriga mazmunan yaqin o'zbek tilshunos olimi Mahmudov tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi, xalqning Bor - budi, bo'y- basti aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borligini anglash demakdir. Muayyan xalqning mazmun- u mohiyatini idrok etish shu xalqning tarixi-yu kelajagini idrok etish demakdir.

Jahon adabiyotida ham bolalar adabiyoti juda katta muhim ahamiyat kasb etadi. XIX-XX asrlarda ham dunyoning eng buyuk yozuvchilari bolajonlar uchun asar yozishgan. Demakki, bolalarni, yosh kelajak avlodni adabiyotga qiziqtirish, ularga bo'lgan e'tibor, ularning tafakkur doirasini kengaytirishga bo'lgan harakatlar ota-



bobolarimizdan, asrlar osha, ming yillar oldin ham bo'lgan. Dastlabki bolalar adabiyoti insoniyat bilan deyarli birga shakllangan. Bu kabi adabiyotlar og'zaki shaklda bo'lib, to'qima, uydirma va miflardan iborat bo'lgan. Lekin ularning zamirida tarbiyaviy, axloqiy-manaviy qadriyatlarni yetkazish, hayotiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish bo'lgan Lyuiss Keroll-ingliz adabiyoti yozuvchisi, matematik, fotograf hamda mantiqshunos olim bo'lgan. Uni eng ommabop "Alisa mo'jizalar mamlakatida" va uning davomi "Alisa ko'zguorti o'lkasida" asarlari dunyoga tanitadigan. Adib o'zgacha yondashuv va dunyo qarashi bilan bolalar adabiyotiga kirib kelgan.

Asl ismi Charlz Latvidj Dodjson bo'lgan lekin Lyuiss Keroll taxallusi bilan ijod qilib, tanilgan adib 1832-yil 27-yanvarda Angliyaning Cheshir grafligida Darsberi qishlog'ida tavallud topgan. Adib ham boshqa bolalar singari yetti yoshida yozishni o'rgana boshlagan. Yosh bo'lishiga qaramay matematika sohasiga bo'lgan qiziqish uni boshqalardan ajratib turgan. Shu bilan birga u adabiyot sohasiga ham katta qiziqish bildirgan.

Lyuiss Kerollni dunyoga mashhur qilgan "Alisa mo'jizalar mamlakatida" hamda uning davomi "Alisa ko'zguorti o'lkasida" asarlari hisoblanadi. Bu asarlar hozirgacha dunyo bolalari tomonidan sevib o'qiladi. Adibning bu asarlari dunyoning turli tillariga tarjima qilibgina qolmasdan, zangori ekranlarda ham taqdim qilinadi.

"1862-yil 13-noyabrda: "Alisa uchun ertak" yoza boshladim. Mavlud ayyomigacha tugatishga umid qilaman",- degan edi adib. Asarning yozilishi tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, asosiy qahramon Alisa ismli qiz bo'lgan. Ya'ni Lyuiss Kerollning yaqin do'sti, adib tahsil olgan Christ Church kolleji dekani Genri Liddelning qizi-Alisa Liddel uchun yozilgan. Adib nafaqat Alisa Liddel bilan, balki uning oilasi bilan ham yaqin do'st bo'lgan. Keroll ular bilan tez-tez ko'rishib turar va ularga turli xil ertak va hikoyalarni to'qib, aytib berardi. Lyuiss Keroll 1862-yil 4-iyul sanasida yaqin do'sti-Alisa va uning opalari bilan birgalikda daryoga, qayiqda sayr qilish uchun chiqishadi. Bu sayohat davomida yozuvchi, adib bir qizchaning allaqandaydir mo'jizalar dunyosiga tushib qolganini va o'sha olamda boshda o'tqizganlarini hikoya qilib beradi. Bu mo'jizaviy olamga bo'lgan sayohat haqida bo'lgan to'qima ertak Alisaga yoqadi va uni qog'ozga tushirib berishini iltimos qiladi.



Adib yaqin do'sti Alisaning iltimosini yerda qoldirmasdan, ertakni kengaytirib, turli xil mantiqiy jumboqlar, qiziqarli qahramonlar, ajabtovur syujetlar qo'shadi. Asar ilk marotaba "Alisaning sarguzashtlari yer ostida" [Alice's Adventures Under Ground] nomi ostida bo'lgan. Oradan vaqt o'tib, adib asarni yanada to'liq shakllantirib, ba'zi joylarini o'zgartirib 1865-yilda hozirgi "Alisa mo'jizalar mamlakatida" nomi ostida nashr qiladi.

Bolalarga mehr muhabbatli bo'lgan adib, Lyuiss Keroll ular bilan doimiy suhbat qurishni, tez-tez muloqot qilishni kanda qilmagan. Oila qurmagan bo'lishiga qaramasdan, bolalarga mehri o'zgacha bo'lgan. Bolalar bilan doimiy muloqotga intilgan adib, ularning dunyoqarashi o'zgachaligini, ularning o'z ichki dunyosi borligini anglagan va bundan ilhomlangan holda ular uchun fantastik sarguzashtlarga boy ertak yozadi. Bu shunchaki ertak ham emas, o'sha davrdagi muhit singdirilgan kitob, lekin uni hamma oddiy ertak sifatida qabul qildi.

Ham matematika, ham ma'no mantiq jamlashgan ushbu asar, kattalar uchun ham birdek manzur bo'ladi. Adib o'z asarida matematika, mantiq, geometriya fanlaridagi bilimlarni ham qo'llagan.

Adib yashab, ijod qilgan davr - Viktorian davriga to'g'ri keladi. Bu davrdagi adabiyotlarda faqatgina qat'iy qo'yilgan talablar, temir intizomlar, majburiy singdirilayotgan qonun -qoidalar aks etilgandi. Bu kitoblar bolalarga axloqiy ta'lim berishga mo'jallangan, bolalar esa ularni o'qishga o'rganishga majbur edilar. Bolalarni boshqalardan ko'proq tushungan, ularning fikrlashlarini, dunyo qarashlarini anglay oladigan Lyuiss Keroll bolalar faqatgina saboq olishi, majburan singdirilayotgan bu qonun - qoidalarga bo'ysungan holda, bolaliklarini o'tqazib yuborishlarini istamaydi. Ular ham erkin o'ynashga, o'zlarining hayoliy olamida yashashga haqli, zavq olishlari va qiziqarli sarguzashtlarga guvoh bo'lishlari mumkin. Shu sababli ham, Lyuiss Keroll odatiy hayotdan, mantiqdan, odob-axloq qoidalaridan ajralib turuvchi "Alisa mo'jizalar mamlakatida" asarini qo'rqmasdan qog'ozga tushiradi. Hazil -mutoyiba, hayoliy- fantastik detallarga boy ushbu asar bolalar tomonidan iliq kutib olinadi.



1865-yilda ilk bora dunyo yuzini ko'rgan asarni Jon Tenniel rang- barang suratlar bilan boyitgan. Keyinchalik, oradan vaqt o'tib, "jahongashta asar" asosida turli kompaniyalar va rejissyorlar tomonidan film, animatsion filmlar suratga olingan.

Eng dastavval, ushbu asarni film sifatida ingliz rejissyorlari Sesil Xepvort va Persi Stou ekranga havola qilishgan. 1903-yili ekranlarda ko'rinish bergan ushbu asar bor - yo'g'i 10 daqiqalik bo'lgan.

Dunyoga mashhur animatsion kompaniya "Walt Disney" ham ushbu asarni animatsion film sifatida jonlantirdi. Rang- barang ranglar bilan to'yingan, turlicha harakatlar aks etgan ushbu asar 1951-yilda suratga olingan bo'lsa ham, bugungi kungacha ommaning e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.

Taniqli va mashhur rejissyor Tim Burton tomonidan 2010-yilda jonli harakatli film ommaga taqdim etildi. Ushbu filmda Mia Wasikowska- Alisa, Kallavaram (ba'zi kitoblarda Shapkachi, Ovsar Shlyapnik deb ham yuritiladi) rolini esa Jonni Depp mahorat bilan ijro etishgan.

Asarda ramziy obrazlardan mohirona foydalanilgan. Masalan, Alisa- o'zligini qidirgan insonlar, qirolicha- zulmkor davlat boshqaruvchisi, Alisaning opasi- hech narsa bilan ishi yo'q, adolatsizliklarni ko'rsa ham jim turuvchi insonlardir. Sud jarayonida qonunning o'qilishi esa, qonun bor, lekin amal qilguvchi yo'q, bo'lsa ham hech kim uni amalda qo'llanamaydi. Nizoga to'la, tartibsiz mamlakatda qonunni baland ovozda o'qish-behuda mashg'ulot, albatta.

Qartalar- qirolichadan "boshini tanasidan judo qiling!" degan gapni eshitmasliklari uchun jim yashab kelayotgan oddiy xalq. Hatto tabiat yaratgan oq atirgulni ham qizilga bo'yashga urinadi. Bu esa jinoyatlar, qotillik va o'g'irliklarga hamma ko'z yumib kelayotgani, "qirolicha" ga esa faqatgina "oq" ranglarni ko'rsatayotganing ifodasi. Badjahl, qo'rs qirolicha esa bahona, ayb topib baribir "boshini tanasidan judo qiling!" deydi. O'sha davrlarda, boring-ki, hozirgi kunda ham, amal kursidan ayrilishni istamay, oddiy xalqni ochiqchasiga ezg'ilagan insonlar, adolatsizliklarga chidab, ko'z yumib kelayotgan oddiy xalq ham bor.

Cheshir mushugi bilan Alisaning suhbati - bu Alisaning o'zi bilan kechadigan suhbat. Insonlarning ichida yana bir inson yashaydi, doim qilgan qaroringga teskari,



yoki doim sen yashirgan haqiqatni ochiqchasiga aytadi. Cheshir mushugi ham aynan o'sha insonlarning ichidagi ovoz. Chunki, bu mushuk haqiqatni aytishdan ham, o'lishdan ham, boshiga musibat tushishidan ham qo'rqmaydi, doim kulib turadi.

Asarni o'qigan har bir mushtariy uchun bu shunchaki bolalar uchun g'ayrioddiy sarguzashtlar bilan boyitilgan ertak tuyiladi. Aslida esa, falsafiy, mantiqiy, ramziy obrazlarga to'la bir asar. Asar orqali hayoliy olam hamda mantiqiy dunyo orasidagi bog'liqliklarni, dunyoqarashlarning ijobiy tomonga o'zgartishini, ramziy obrazlar orqali real hayotdagi haqiqatni tushinish mumkin.

“Alisa mo'jizalar mamlakatida” asarida mantiqqa zid bo'lgan, aslida esa, o'yga tolishga undovchi suhbatlarni, vaziyat va sarguzashtlarni yuqorida ko'rdik. [Cheshir mushugi bilan suhbat, choyxo'rlar bilan suhbat, qartalar bilan bo'lgan vaziyatlar]. Ushbu asar ma'no - mazmunga bo'ysunmaydi. Masalan, tartibsizliklar orasida kechayotgan sud jarayonida Alisaning guvoh bo'lishi. Alisa hech qanday o'g'irlikning guvohi bo'lmagani barchaga aniq. Yoki sud jarayonida noodatiy qonunlarning o'qilishi. Arzimas narsalar uchun ham qirolichaning “boshini tanasidan judo qiling!” deya tinmasdan takrorlashi ham real hayotdagi adolatsizliklardan dalolat. Alisa ma'lum bir vaqt hayoliy mo'jizalar mamlakatida bo'lgan sayohati davomida kattalar yashayotgan real hayot tushunarsiz, qonun - qoidalar hamda majburiyatlarga to'la ekanini anglaydi va o'ziga “men katta bo'lsam....” jumlasini bilan boshlanuvchi ro'yhat ham tuzadi. Bolalar o'zlarini kattalardek tutishlari - bolalarning bolaligi sekin-astalik bilan yo'qolib ketayotganidan darak.

Asar qaysidir ma'noda falsafiy asar ham hisoblanadi. O'zini, o'zligini anglashga urinayotgan, turli sarguzashtlarni boshidan kechirgan Alisa uchun Mo'jizalar mamlakati yordam beradi. Falsafiy qatlam, mantiqiy suhbatlar, absurd tushunchalar, inson tafakkurining cheksizligi bilan boyitilgan ushbu asarni har o'qiganingizda turlicha xulosa bilan, o'zgacha ma'no - mazmun bilan, boshqacha taassurot bilan yakunlaymiz.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Lyuiss Keroll; "Alisa mo'jizalar mamlakatida" kitobi. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. Toshkent -2016
2. Marjona Axrorov; "Tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar". Tarjimashunoslar forumi-2023
3. M.Sh.Omonova; "Tarjima nazariyasi va amaliyoti". "Zebo Prints" nashriyoti. Toshkent -2023
4. Mohira Otaboyeva "Alisa mo'jizalar mamlakatida" kitobi. Toshkent -2020
5. Q.Azizov, O.Qayumov: "Chet el adabiyoti tarixi (XVIII-XX asrlar)" pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari uchun darslik. "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent -1987